



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



OLIV TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA  
RAQAMLI TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALARNING O'RNI  
Xalqaro ilmiy onlayn konferensiya  
**M A T E R I A L L A R I**  
1-kitob

---

РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ  
В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ  
**M A T E R I A L Y**  
Международной научной онлайн конференции  
1-книга

---

ROLE OF INNOVATION AND DIGITAL TECHNOLOGY IN  
IMPROVING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION  
**M A T E R I A L S**  
of the international scientific online conference  
Book 1



**NSPI.UZ**

2021-yil 20-noyabr,  
Navoiy shahri

моделлаштиришнинг тарихий тадқиқотларда қўлланилиши, виртуал музейлар ва уларнинг аҳамияти каби мавзулар киритилган. Муаммо шундаки, юқоридаги мавзуларни тарих таълим йўналишида дарс бераётган профессор-ўқитувчилар тўла тушуниб етмаган. Натижада самарадорлик пасайиб кетишига сабаб бўлмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Олий таълим муассасаларини ўқув адабиётлари билан таъминлаш” тўғрисидаги қароридан электрон ўқув адабиётлари — замонавий ахборот технологиялари асосида маълумотларни жамлаш, тасвирлаш, янгилаш, сақлаш, билимларни интерактив усулда тақдим этиш ва назорат қилиш имкониятларига эга бўлган электрон мажмуа<sup>142</sup> шаклида яратилиши белгиланган. Бу борадаги кўрилаётган чора-тадбирларни амалга оширишда тарихни рақамлаштириш масаласини ҳал эта олдиган малакали кадрларга бўлган эҳтиёж яққол кўзга ташланади. Ўтган йиллар давомида ҳукумат томонидан рақамлаштириш борасида кўплаб тадбирлар амалга оширилган бўлишига қарамасдан, кутилган натижага эришилди деб бўлмайди. Жумладан, ОТМ тарих таълим йўналишларида электрон дарслик ва ўқув-қўланмалар яратиш ҳолати ачинарли. Рақамли ўқув материалларининг етишмаслиги таълимни янги шакллари модул-кредит ҳамда масофавий таълимга салбий таъсир кўсатмоқда. Масалан, тарих фанларини ўқитишда лазер слайдер, ГИС дастури, дронлар, турли радар, компьютер технологиясининг замонавий авлодидан фойдаланишда бир неча муаммолар юзага келмоқда. Таълим тизими моддий техник баъзасининг пастлиги, интернет тезлиги, педагог-ҳодимларнинг АКТ билиш даражаси каби муаммолар шулар жумласидандир.

Бир сўз билан айтганда, таълим тизимини янги электрон ўқув, ўқув-услубий материаллар билан таъминлашга ихтисослашган марказ ташкил этган ҳолда бу борадаги муаммоларни ижобий ҳал этиш мумкин бўлади. Қолаверса, янги ўқув материалларини ишлаб чиқишда турли мутахассислар (педагог, психолог, информатик ва ҳ.к)ни ўзаро мувофиқлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ бўларди эди.

## **TARIX TADQIQOTLARIDA YANGI TEXNOLOGIYALARNING UYG'UNLASHISHI**

**Akramov Doston Faxriddin o'g'li  
BuxDU Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchi**

**Annotatsiya:** Axborot texnologiyalarining tarix fani bilan uyg'unlashishi, tarix tadqiqotlarda yangi yondashuvlar kirib kelishi, O'zbekistonning oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar rivojlanishi uchun har tomonlama puxta o'ylangan chora-tadbirlar mazmunining oshishi, yoshlarning bilimli, zukko bo'lishi hozirgi zamon talabi bo'lishi haqida fikr yuritilgan.

**Annotation:** The integration of information technology with the science of history, the introduction of new approaches to historical research, the growth of the content of well-thought-out measures for the development of digital technologies and innovations in the higher education system of Uzbekistan. It is thought to be a modern requirement.

XX asrning 80-90 yillarida bilimlarning barcha sohalariga kirib kelgan axborotlashtirish jarayoni tarix fanini ham chetlab o'tmadi. Tarixchilar kompyuterlardan foydalanibgina qolmay, tezlik bilan rivojlanayotgan dasturiy va texnik vositalar ularni tarixiy tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan vositaga aylantirdi. Bu esa tarixchi faoliyatida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini yaratdi. Kompyuterlar tarixchilar ilmiy ishlarini yozish va tahrirlash vositasigina bo'lib qolmay, nozik manbashunoslik metodikalari realizatsiyasi uchun qulay qurolga aylandi. Nisbatan arzon matn yoki tasviriy materialni kompyuter xotirasiga optik kiritish qurilmalari - skanerlarning paydo bo'lishi ijtimoiy -gumanitar fanlar, tarix, muzeyshunoslik va apxiv ishi bo'yicha tadqiqotlarga turtki bo'ldi. Bunga yana juda katta hajmga ega bo'lgan optik disklarning chiqarilishi ham sabab bo'ldi.

<sup>142</sup>Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.10.2018 й., 09/18/816/2032-сон; 29.12.2019 й., 09/19/1046/4242-сон

Arxivlarda ishlovchi tarixchilarning mehnat sharoitlari ham o'zgardi: portativ kompyuterlar (noutbuk)lar apxiv fondlaridan olinadigan barcha yozuvlar birdaniga kompyuter xotirasiga yoki ma'lumotlar bazasiga kiritilishi mumkin. BASE va boshqa tipdagi standart berilganlar bazalarini boshqarish tizimlarining mukammallasuvi, ayniqsa tarixiy manbalarning xususiyatlarini hisobga oluvchi maxsus dasturiy ta'minotning (Gettingenlik doktor M.Taller tomonidan ishlab chiqilgan KLEIO tizimi kabi) ishlab chiqarilishi bir qator ilmiy markazlarning katta bazalarini yaratishga qaratilgan faoliyatlarini sezilarli faollashtirdi.

Tarixiy tadqiqotlarni axborotlashtirishning ko'plab tendensiyalarining tezlik bilan tarqalishiga kompyuterda ishlovchi tarixchilar orasida aloqani ta'minlovchi elektron pochta ham yordam bermoqda. Elektron kommunikatsiyalarning fan va ta'lim sohasidagi imkoniyatlari keskin ortgan vaqtda tarixchilar Internet tarmog'i taqdim etuvchi ulkan axborot resurslaridan bahramand bo'lmoqdalar. 1986-yilda turli mamlakatlardagi o'z tadqiqotchilik amaliyotida va o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanuvchi tarixchilar faoliyatini boshqaruvchi ANS tashkil topdi. 1992-yildan ANS tarkibiga MDH davlatlari tarixiy informatika bo'yicha mutaxassislarini birlashtiruvchi AIK ham kiradi.

Tarixiy informatika – tarix fani va ta'limini axborotlashtirish jarayoni qonuniyatlarini o'rganuvchi bilimlar sohasidir. Tarixiy informatika asosida barcha turdagi tarixiy manbalarning elektron versiyalarini yaratish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar majmuasi yotadi. Tarixiy informatikaning nazariy asosini zamonaviy axborot konsepsiyasi bilan ijtimoiy informatika va nazariy manbashunoslik tashkil etadi. Tarixiy informatika amaliy asosini esa kompyuter texnologiyalari tashkil etadi.

Tarixiy informatika bilimlarning alohida sohasi sifatida global axborotlashtirish sharoitida vujudga keldi. Bu vaqtga kelib, iqtisodiyot, ijtimoiy tadqiqotlar, huquqshunoslik kabi bir qator ilmiy sohalarning informatika bilan bog'liq yo'nalishlari ajralib chiqdi. Tarixiy informatika terminining o'zi 1990-yillardan boshlab ikki ma'noda ishlatila boshlandi:

1. Tarix fani ta'limini axborotlashtirish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan;
2. Barcha turdagi tarixiy manbalarning elektron versiyalarini yaratish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar majmuasi.

XX asr oxirgi o'n yillikda uzluksiz mukammallashtirish natijasida personal kompyuter tarixchilar intellektual mehnati uchun samarali qurolga aylandi. Bu vaqtgacha bir necha o'n yil davomida geometrik tadqiqotlar olib borilib, elektron arxiv ba'zolari yaratish tajribasi to'plandi, tarixiy tadqiqotlar uchun mo'ljallangan statistik programmalar yaratildi.

Shunday qilib, tarixiy informatika tadqiqotlarda matematik usullarni qo'llash sohasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kliometrika yoki kvantitativ tarix nomini olgan.

O. Behutovning "XXI asr valyutasi" nomli maqolasida o'quvchilarning bilimi katta daramadlar beradigan omonat kassasidir. Faqat o'sha olgan bilimlaringizni doimo amalda qo'llay olsangiz asl xazinaga, natijaga ega bo'lasiz. XXI asr valyutasi –amalda isbot qilingan bilimdir. Inson o'z hayoti faoliyati davomida kundalik birlamchi ehtiyoji ovqat kabi ma'lumotga ham ehtiyoji birlamchi hisoblanadi. Chunki tabiat, jamiyat va inson ham doimo o'zgarishda bu o'zgarishlar taraqqiyotga va rivojlanishga ta'sir o'tkazishi uchun eng avvalo, bilim hayot muvozanatini tutib turuvchi vosita sanaladi. Shuning uchun izlanuvchi yoshlarga va albatta iqtidorli talabalarga nazariya va amaliyot uyg'unligini o'rgatish hamda shu asnodan ilmiy ish olib borish ko'nikmasini qaror toptirishda esa axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar bilan tarix tadqiqotini rivojlantirish bu birinchi masala sanaladi. Talabalar ilmiy muhitga kirar ekan, avvalo o'zining vatanparvarlik xususiyatini saqlab qolib, fan tarmog'ida axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minotlar bazasi, yangilik va qulaylik imkoniyatlarini yaratishi lozim. Eng avvalo maqsad insonlar og'irini yengil qilish, qulaylik yaratish, fanni rivojlantirish va tarixni yangi innovatsiyalar bilan qurollanishga ko'maklashish kerak. Shu bois oliy ta'lim dargohlarida yoshlarga yuksak ta'lim –tarbiya, ilmiy-tadqiqot va axborot texnologiyalarni uyg'un tarzda foydalanadigan tadqiqotlarni hamda shu orqali salohiyatli izlanuvchan talabalarimiz o'z maqsadi yo'lida ildam harakatlanadigan bo'lib, muvaffaqiyat pillapoyasidan ko'tariladi va O'zbekistonning rivojlangan demokratik jamiyatga aylanishida muhim hissa qo'shadigan aqlli, zukko, bilimli, salohiyatli, tajribali kadr hamda vijdonli, iymonli va albatta vatanparvar fuqarosi

bo'lib yetishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". T.: "O'zbekiston". 2017. 488b.
2. Mirziyoyev Sh. M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T.: "O'zbekiston". 2017. 592b.
3. Narzulla Jo'rayev "Tarix falsafasining nazariy asoslari" – T.: "Ma'naviyat".2008.
4. "Ma'rifat" gazetasi
5. "Do'stlik bayrog'i" gazetasi

**DIRIJORLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH JARAYONLARI**

**Aliyev Bekzod Tursun o'g'li**

J.P.D.I. "Musiqqa ta'limi va san'at" yo'nalishi magistranti

**Said Saidiy-Boltazoda**

San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

*Dirijorlik san'ati – musiqiy sezgini uyg'otib,  
uni yanada charxlab, tasavvurni kengaytirishini  
kech bo'lsada anglab yetdim.*

*P.I.Chaykovskiy*

**Annotatsiya.** Innovasion o'qitish uslublari va O'zbekiston hamda jahonda erishilgan ilmiy yutuqlardan foydalanilgan holda mashg'ulot jarayonlarini tashkil etish, bugungi kundagi hukumatimiz tomonidan o'quvchi yoshalarni kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biridir. Shu sababli, ushbu maqola dirijorlik mutaxassisligiga qiziqqan o'quvchilarni elementar saboqlardan boshlab, badiiy ifoda jihatlarigacha o'zlashtirish, ularning ushbu kasbga qiziqishini yanada oshirish, o'z ustida mustaqil ishlash kabi fazilatlarini rivojlantirish borasida keng ko'lamli yordam berishdir.

**Kalit so'zlari:** Dirijyor, san'at, orkestr, ansambl, battuta, avtor, manual, analiz, garmoniya, general repetitsiya, janr, cholg'ulashtirish, partitura, ritm, transpozitsiya, fermata, liga, fraza, kompozitor

**Аннотации.** Одним из основных требований сегодняшнего государства к профессиональной деятельности студентов является организация учебного процесса с использованием инновационных методов обучения и научных достижений Узбекистана и мира. Таким образом, данная статья предназначена для оказания широкой помощи студентам, заинтересованным в проведении, от элементарных уроков до художественного самовыражения, для повышения их интереса к профессии, для развития таких качеств, как самостоятельная работа.

**Ключевые слова:** Дирижор, искусство, оркестр, ансамбль, баттута, автор, мануал, анализ, гармония, генеральная репетиция, жанр, приборы, счет, ритм, транспозитция, фермата, лига, фраза, композитор

**Annotation.** One of the main requirements of today's government for the professional activity of students is the organization of training processes using innovative teaching methods and scientific achievements of Uzbekistan and the world. Therefore, this article is intended to provide a wide range of assistance to students interested in conducting, from elementary lessons to artistic expression, to increase their interest in the profession, to develop such qualities as independent work.

TARIX TADQIQOTLARIDA YANGI TEXNOLOGIYALARNING UYG'UNLASHISHI  
Akramov Doston Faxriddin o'g'li  
BuxDU Jahon tarixi kafedrası o'qituvchi.....152

DIRIJORLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH JARAYONLARI  
Aliyev Bekzod Tursun o'g'li  
J.P.D.I. "Musiqá ta'limi va san'at" yo'nalishi magistranti  
Said Saidiy-Boltazoda- San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor.....154

ХОРАЗМ ТАСАВВУФ АЛЛОМАЛАРИНИНГ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА  
ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ УЙЎОТИШ ВА  
РИВОЖЛАНТИРИШ УСЛУБИЯТЛАРИ  
Ходжаниязов С.У.- доцент., УрДУ Ўзбекистон.....156

МУАММОЛИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ  
ОШИРИШДАГИ ЎРНИ  
Бердиева Гулмира Аминовна - Бухоро муҳандислик-технология институти  
"Ижтимоий фанлар" кафедраси катта ўқитувчиси, тарих фанлари номзоди.  
Ўзбекистон..... 159

---

---

OLY TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA  
RAQAMLI TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALARNING O'RNI  
Xalqaro ilmiy onlayn konferensiya  
M A T E R I A L L A R I

---

РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ  
В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ  
M A T E R I A L Y  
Международной научной онлайн конференции

---

ROLE OF INNOVATION AND DIGITAL TECHNOLOGY IN  
IMPROVING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION  
M A T E R I A L S  
of the international scientific online conference

---

© Навоий давлат педагогика институти, 20.11.2020 й.

Босишга рухсат берилди: 20.11.2021 й. Қоғоз бичими 80x64. 1/8  
Ҳажми 8,75. босма табоқ. Адади 100 нусха.  
Босмахона манзили: Навоий шаҳри, Ибн Сино кўчаси 45-уй,  
НавДПИ кичик босмахонаси

---

---